

ХОТИН-ҚИЗЛАР ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ





XOTIN-QIZLAR ENSIKLOPEDIYASI



XOTIN-QIZLAR ENSİKLOPEDIYASI



Tahrir hay'ati:

Farida Abdurahimova, Mohina Ashirova,
Dilbar Jahongirova, Vasila Karimova,
Dilbar Mahmudova, Oynisa Musurmonova,
Sayyora Rashidova, Rahima Shomansurova,
Dilbar G'ulomova.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent

Muallif va tarjimonlar ro'yxati:

Murodjon Aminov, Mohina Ashirova, Ernst Begmatov, Erkin Zokirov, Saroyat Karimova, Guljahon Mardonova, Dilbar Mahmudova, San'at Mahmudova, Gavhar Mirzayeva, Oynisa Musurmonova, O'ktam Muhammad Murod, Qo'chqor Norqobil, Muhabbat Rasulova, Nurxon Ro'zimuhamedova, Ergash Salimov, Muattar Sodiqova, Muborak Teshaboyeva, Rahima Shomansurova, Karim Shoniyozov, G'ayrat Shoumarov .

Maxsus muharrir *Rahima Shomansurova*
Rassom *Asqar Yoqubjonov*

X 03020500000—011
358—2009

ISBN 978-9943-07-081-3

- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 1999.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
- © «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.

NASHRIYOTDAN

Ayol — tabiatning buyuk mo'jizasi. Oilasiz jamiyat, davlat bo'lmagani kabi, ayolsiz oilani ham tasavvur etish qiyin. Ayol — oila charog'boni, farzandlarimiz homiysi, farovon, go'zal hayotimiz garovi, xonadonimiz fayzidir. Muqaddas dinimiz Islomda ayol mo'tabar bir zot sifatida e'zozlanadi.

O'zbek oilasi, o'zbek ayolining shakllanish tarixi xalqimizning ko'hna tarixi bilan uyqashdir. Sharq ayollari, jumladan o'zbek ayolining shakl-u shamoyili, siyrati, ma'naviy olamining shakllanishida, ayniqsa, Islom aqidalarining ta'siri beqiyos. O'tmishda oila boshlig'i bo'lgan erkakka hurmat, sharm-hayo, andisha o'zbek ayolining muhim xislati sanalgan. Bunday xislatli ayollar yashagan oilalarda totuvlik, hamjihlatlik vaziyati qaror topib, farzandlar ajoyib insonlar bo'lib voyaga yetishgan.

Biroq o'lkamizni chor mustamlakachilari istilo qilganidan keyingi davrda, ayniqsa, sho'ro tuzumi yillarida xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish (xotin-qizlar emansipatsiyasi), ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish shiori ostida o'tgan harakatda oila va ayol masalasida ko'pgina milliy qadriyatlar oyoq osti qilindi, ayolga tabiat ato etgan eng buyuk vazifa — onalik vazifasi qandaydir ikkinchi darajali ishga aylantirildi. Jamiyatda turmush tashvishlari ezib tashlagan, na uy-ro'zg'or yumushlarining, na davlat tashkilotidagi vazifasining uddasidan chiqa olmay, ikki dunyo ovorasi bo'lgan ayollar ko'paydi. Bu ahvol oilalarni parokanda qilib, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyat oldida yangi muammolarni yuzaga keltira boshladi.

Lekin shuni iftixor bilan qayd etish kerakki, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy jabhalarda tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida oila masalasiga ham katta e'tibor berila boshlandi. Ayol qadr-qimmatini yanada ko'tarish, oila farovonligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 1998-yil — «Oila yili», 1999-yil — «Ayollar yili», 2000-yil — «Sog'lom avlod yili», 2001-yil — «Ona va bolalar yili», deb e'lon qilinib, bu borada katta ijtimoiy-siyosiy tadbirlar amalga oshirildi. Oila, onalik va bolalik ijtimoiy muhofaza etilib, bu boradagi milliy qadriyatlarni tiklash, oila mustahkamligini ta'minlash mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Islom Karimov ayollarni nihoyatda ulug'lash va e'zozlashga chaqirib shunday deydi: «...Avvalo onalarimiz, opa-singillarimiz, umr yo'ldoshlarimiz, qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini yanada oshirish, izzat-ikromini joyiga qo'yish, ularning og'irini yengil qilih — davlatimizning, hukumatimizning, joylardagi hokimliklarning, keng jamoatchilikning asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim».

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti ushbu kitobni tayyorlashda, avvalo, mustaqillik mafkurasidan, bugungi murakkab dunyodagi hayot ayol oldiga qo'yayotgan vazifalardan kelib chiqilganini alohida ta'kidlash kerak. Kitobda qiz bolaning dunyoga kelishidan boshlab, uni tarbiyalab o'stirish,

balogʻat yoshiga yetguniga qadar ichki va tashqi dunyosida yuz beradigan oʻzgarishlar, qiz bolani oila qurishga tayyorlash, er-xotinlik munosabatlari, roʻzgʻor tashvishlari, onalik baxti, oilaning axloqiy-ruhiy muhiti, muhabbat va vafu kabi masalalar oʻrin olgan. Kitobning mavzusi, mundarijasi qamrovining kengligi, rang-barangligi hamda ayollarni qiziqtirgan juda koʻp savollarga javoblar berilganligi, oila, turmush masalalari boʻyicha tavsiyalar, maslahatlar topish mumkinligini hisobga olsak, bu kitobni ensiklopedik nashrlar qatoriga kiritish mumkin. Shu bois uni shartli ravishda «Xotin-qizlar ensiklopediyasi» deb nomladik.

Kitob toʻqqiz boʻlimdan iborat, ular quyidagilar: 1. Balogʻat pillapoyalari. 2. Oila va kelinlik odobi. 3. Er-xotinlik. 4. Onalik. 5. Bolalik. 6. Uy-roʻzgʻor va hordiq. 7. Husn va tansihatlik. 8. Kiyim, bichish-tikish. 9. Toʻy marosimlari, odatlar.

Har bir boʻlimda xotin-qizlar hayotida muayyan oʻrin va ahamiyatga ega boʻlgan masalalar guruhlanib, atroflicha yoritilgan. Eng muhimi, har bir mavzuda imkon doirasida oʻzligimizga qaytishga, milliy qadriyatlarimizni tiklashga daʼvat etiladi.

Kitob soʻngida Qurʻoni karim, hadis, xalq maqollarida ayollar haqida bildirilgan fikrlar keltiriladi, bu haqda allomalarning ibratli gaplari beriladi.

Kitob yengil oʻqiladi. Buning boisi, u suhbat shaklida bitilgan. Sizning suhbatdoshingiz koʻpni koʻrgan, oq-qorani tanigan, tajribali, bilimdon kishilar. Ular har bir ayol sevimli yor, mehribon ona, orasta uy bekasi boʻlishi uchun nimalarga ahamiyat berishlari lozimligi haqidagi oʻz maslahatlari, tavsiyalarini beradilar.

Nashriyot mazkur kitobni tayyorlashda bevosita qatnashgan barcha mutaxassislariga, taqrizchilarga samimiy minnatdorчилиğini izhor etadi. Kitobxonlarning taklif va mulohazalarini mamnuniyat bilan qabul qiladi va keyingi nashrlarni tayyorlashda eʼtiborga oladi.

Bizning manzil: Toshkent, 100129,
Navoiy koʻchasi, 30-uy.
«Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti.

BALOG'AT PILLAPOYALARI



JISMONIY ULG‘AYISH

- Qiz bola • Hayz • Orastasiz — farishtasiz
- Tashqi qiyofangiz • Sarv qomat • Xirom aylab...
- Chiroyli oyoqlar • Siynalar • Qo‘l va yelkalar
 - Ko‘zlar — ko‘ngil ko‘zgusi • Bu — siz.

MA‘NAVIY GO‘ZALLIK

- Qizlar ruhiyati. Andisha • Iffat
- Qiz bolaning sha‘ni • Muomala
 - Nazokat • Qizlar daftari
- Kitob o‘qishni tashlamang • Dugonalar
 - Yangi hayot ostonasida.

JISMONIY ULG‘AYISH

Mavzular:

- ◊ Qiz bola
- ◊ Hayz
- ◊ Orastasiz — farishtasiz
- ◊ Tashqi qiyofangiz
- ◊ Sarv qomat
- ◊ Xirom aylab...
- ◊ Chiroyli oyoqlar
- ◊ Siynalar
- ◊ Qo‘l va yelkalar
- ◊ Ko‘zlar — ko‘ngil ko‘zgusi
- ◊ Bu — siz

Mana, yana bir inson dunyoga keldi!

«Holva!»

Atrofdan qalbingiz tepkiniga monand «Suyunchi!», «Suyunchi!» sadolari kelyapti. Siz qizlik bo‘ldingiz. Bu sizning hayotda qoldirajak eng qutlug‘ izingiz!

Elimiz ayollarni e‘zozlaydigan el. Ayol oladigan barcha e‘zozning yarmi ayolligi uchun bo‘lsa, yarmi onaligi — o‘zi qoldiradigan tabarruk «iz» uchundir.

Xalqimizda yana «Gul o‘ssa — yerning ko‘rki, qiz o‘ssa — elning ko‘rki», degan maqol bor. Maqol qizlarning nafosatga qiyos qilinishi bilangina emas, millatning kelajagi ko‘p jihatdan ularga bog‘liqligi bilan purhikmatdir. Shuning uchun ham qizlar tarbiyasiga elimizda alohida ahamiyat beriladi.

Qizalog‘ingiz qadam bosib, atak-chechak yura boshlagach, siz uni balog‘at pillapoyalari sari yetaklaysiz. U ulg‘aygani sari unga mehringiz ham, talab va mas‘uliyat ham ortib boraveradi.

Uning o‘yinqaroq yillari ortda qolib, balog‘at davri boshlanishi bilan ko‘plarning xonadoningizga o‘zgacha nazar tashlay boshlaganini sezasiz, Qizi bor oila bilan ko‘plar qiziqadi. Bo‘lmasam-chi! «Qizlik uy — karvonsaroy», deydi dono xalqimiz. Qizlik xonadonlar fayzligi, saranjom-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3772> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3772> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3772>